



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

TORTISH HARAKATDAGI TEMIR YO'L TARKIBINI BOSHQARISH VA UNGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH



“Tortish harakatdagi temir yo‘l tarkibini boshqarish va unga texnik xizmat ko‘rsatish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarish va unga texnik xizmat ko'rsatish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0134



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Dizel poyezd, avtomotris mashinisti", "Dizelpoyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezd mashinisti yordamchisi", "Drezina haydovchisi", "Elektrovoz mashinisti yordamchisi", "Teplovoz mashinisti yordamchisi", "Tortish agregati mashinisti" va "Lokomotivlarni ta'minlash bo'yicha chilangar" kasb (lavozim)lari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

baholash mezonlari – kasbiy malakani aniqlash jarayonida qo'llaniladigan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'lchash uchun belgilangan talablar majmui;

kasbiy kompetensiya – belgilangan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisi;

lokomotiv – temir yo'l izlari bo'ylab poyezdlar va alohida vagonlarni olib yurish uchun mo'ljallangan temir yo'l tortish tarkibi;

mashinist – transport nazorati inspeksiyasi tomonidan berilgan amaldagi mashinist guvohnomasiga va harakatdagi tarkib harakati xavfsizligi uchun mas'ul bo'lgan, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarish huquqiga ega bo'lgan temir yo'l transportidagi mutaxassis;

ekspluatatsiya – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalardan foydalanish va uni ishlashga tayyor holda saqlash jarayoni;

texnik xizmat – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun profilaktik va rejalashtirilgan xizmat ko'rsatish ishlari;

rejadan tashqari ta'mirlash – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarning kutilmagan nosozligi sababli bajariladigan ta'mirlash ishlari;

depo – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari olib boriladigan texnik baza;

signalizatsiya – poyezdlar harakatini boshqarish va xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladigan yorug'lik va ovozli signallar tizimi;

markazlashtirish va blokirovkalash – poyezdlar harakatini boshqarish va yo'l kesishmalarida xavfsizlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan tizimlar;

lokomotiv brigadasi – lokomotiv, shuningdek, o'ziyurar mashinalarni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mas'ul xodimlar guruhi;

tormoz tizimi – lokomotiv va poyezdlarni to'xtatish yoki tezligini pasaytirish uchun ishlatiladigan mexanizm;

yo'l holati – temir yo'lning texnik va ekspluatatsion holati, poyezd harakati xavfsizligini ta'minlash uchun muhim omil;

energiya ta'minoti – lokomotiv shuningdek, o'ziyurar mashinalarga zaruriy quvvat yetkazib berish tizimi (elektr, yoqilg'i yoki bug') ;

favqulodda vaziyat – harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi texnik yoki ekspluatatsion holatlar;

marshrut – poyezd harakatlanishi kerak bo'lgan oldindan belgilangan yo'nalish;

blokirovka tizimi – poyezdlar to'qnashuvining oldini olish va xavfsiz harakatni ta'minlash tizimi;

malakaga ega shaxslar reestri – malakani baholash markazlarida kasbiy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan, malaka sertifikat va malaka pasportiga ega shaxslar to'g'risidagi doimiy yangilanadigan ma'lumotlar bazasi;

mashinist yordamchisi – temir yo'l transporti tashkiloti (ish beruvchi) tomonidan berilgan amaldagi mashinist yordamchisi guvohnomasiga ega bo'lgan, texnik ijrochilar toifasiga kiruvchi, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarish huquqsiz va o'z mehnat faoliyatida bevosita tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi mashinistga bo'ysunuvchi temir yo'l transporti xodimi. Istisno tariqasida, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini mustaqil boshqarishga amaliy sinovlardan o'tish (tayyorgarlik ko'rish) maqsadida tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi kabinasida bo'lgan mashinist yordamchisi bundan mustasno;

guvohnoma – belgilangan namunadagi hujjat bo'lib, uning egasiga tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarishda muayyan funksional vazifalarni bajarish huquqini beradi;

tortish harakatdagi temir yo'l tarkibi (keyingi o'rinlarda — tortish harakatdagi tarkibi) – tortish xususiyatlarga ega bo'lgan va temir yo'llarda poyezdlar va alohida vagonlarni olib yurish uchun mo'ljallangan lokomotivlar, motorvagonli harakatdagi tarkib, maxsus o'ziyurar harakatlanuvchi tarkib.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi 2024-yil 27-noyabr O'RQ-1006-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 30-sentyabr PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining (Texnik tartibga solish agentligi) 2025-yil 18-iyul 94/MSt - son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT 2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 28-sentyabr 504-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2025-yil 17-iyun 369-son qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – tarmoq tarif malaka ma'lumotnomasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Lokomotivlar mashinistlari va turdosh kasb ishchilari
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Temir yo'llarda lokomotivlarning harakatlanishini ta'minlash, poyezdlarni yoki alohida vagonlarni ish holatida saqlash.
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	C seksiyasi. Ishlab chiqaradigan sanoat: 33. Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish 33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash 33.17 Transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish 33.17.0 Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar, jumladan tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish H seksiyasi. Tashish va saqlash: 52. Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati 52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat 52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 52.21.0 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarish, harakat xavfsizligini ta'minlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha talablarni belgilaydi. Ushbu standartga ko'ra, mashinist va texnik xodimlar tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining texnik holatini tekshirish, boshqarish va nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqarish bo'yicha talablar harakatni boshlashdan oldin dvigatel va asosiy tizimlarni ishga tayyorlash, harakat davomida tezlikni boshqarish, tormoz tizimidan foydalanish va dispetcherlik xizmati bilan aloqa o'rnatishni o'z ichiga oladi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ishlar harakatdan oldin va keyin tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining texnik holatini tekshirish, profilaktik xizmat ko'rsatish, dvigatel, uzatma va tormoz tizimlarini ta'mirlash, elektr jihozlari va signalizatsiya tizimlarini sozlash hamda favqulodda vaziyatlarda nosozliklarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ish xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish zarur bo'lib, bunda elektr toki, mexanik jarohatlar va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish talab etiladi. Standartga ko'ra, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibini boshqaruvchi mutaxassis texnik hujjatlar bilan ishlash, temir yo'l signalizatsiyasi va dispetcherlik tizimlari bo'yicha bilimga ega bo'lishi, tortish harakatdagi temir yo'l tarkibining har xil

		turlari va ularning asosiy texnik xususiyatlarini tushunishi hamda dvigatel va uzatma tizimlarining ishlash prinsiplarini bilishi lozim. Ushbu kasbiy standart temir yo'l transportining samaradorligini ta'minlash va xavfsizligini oshirishga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72331005-Lokomotivlarni ta'minlash bo'yicha chilangar	3
		83110002-Dizelpoyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezd mashinisti yordamchisi	3
		83110003-Drezina haydovchisi	3
		83110008-Elektrovoz mashinisti yordamchisi	3
		83110024-Teplovoz mashinisti yordamchisi	3
		83110026-Tortish agregati mashinisti	3
		83110001-Dizel poyezd, avtomotris mashinisti	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	72331005- Lokomotivlarni ta'minlash bo'yicha chilangar	A1.3	Lokomotivni ta'mirlash jarayonida payvandlash, mahkamlash, rostlash va sinovdan o'tkazish ishlarini bajarib, belgilangan texnik me'yorlarga muvofiqligini nazorat qilish	A1.01.3	Lokomotiv detallari va konstruksiya qismlarida payvandlash hamda mahkamlash ishlarini bajarish, birikmalarning mustahkamligi va texnik talablarga mosligini tekshirish
				A1.02.3	Agregat va mexanizmlarini rostlash, sinovdan o'tkazish hamda aniqlangan nosozliklarni bartaraf etib, ularning belgilangan texnik me'yorlar asosida ishlashini ta'minlash
		A2.3	Lokomotiv agregat va mexanizmlarini nosozliklarni aniqlash	A2.01.3	Agregat va mexanizmlarini diagnostika asboblari yordamida tekshirib, nosozliklarning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralari belgilash
				A2.02.3	Mexanik va pnevmatik hamda elektr tizimlarida yuzaga kelgan nosozliklarni texnik hujjatlar asosida aniqlash, ta'mirlash uchun zarur ehtiyot qismlar va usullarni tanlash
		A3.3	Lokomotivning tormoz, sovutish, moylash va elektr tizimlarini ta'mirlash hamda sozlash ishlarini bajarish	A3.01.3	Lokomotivning tormoz tizimini tekshirish, nosoz qismlarni aniqlash va ularni ta'mirlash hamda sozlash ishlarini bajarish
				A3.02.3	Sovutish tizimining nasoslar, radiatorlar va quvurlarini diagnostika qilish, nosozliklarni bartaraf etish va normal ishlashini ta'minlash
				A3.03.3	Moylash tizimi elementlarini (nasos, filtr, quvur va boshqalar) tozalash, almashtirish va sozlash orqali uzluksiz moy yetkazilishini ta'minlash

				A3.04.3	Elektr tizimi simlari, kontaktlari va boshqaruv qismlarini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun ta'mirlash ishlarini bajarish
		A4.3	Lokomotivning uzal va detallarini diagnostika uskunalari yordamida tekshirish, profilaktik ta'mirlash ishlarini bajarish hamda lokomotivning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash	A4.01.3	Lokomotivning uzal va detallarini diagnostika uskunalari yordamida tekshirib, ularning texnik holatini aniqlash va nosozliklarni erta bosqichda aniqlash
				A4.02.3	Diagnostika natijalari asosida profilaktik ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va bajarish, eskirgan yoki ishdan chiqqan qismlarni vaqtida almashtirish
				A4.03.3	Lokomotivning mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirib, uzluksiz ishlashini ta'minlash
				A4.04.3	Lokomotivning xavfsiz ekspluatatsiyasi uchun sinov va nazorat ishlarini o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda texnik me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash
2.	83110002-Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezd mashinisti yordamchisi	B1.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdni tayyorlash va yakuniy ishlar bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish	B1.01.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdni qabul qilish (topshirish)da asosiy uzallar, tizimlar va asboblarning ishlashini tekshirish bilan yordamchi funksiyalarni bajarish
				B1.02.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdni ishga tayyorlash va jihozlash bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				B1.03.3	Tormozlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etish
				B1.04.3	Belgilangan hujjatlarni yuritish
		B2.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdning samarali	B2.01.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdni boshqarishda yordamchi funksiyalarni bajarish

			harakatini ta'minlash bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish	B2.02.3	Depo va stansiya yo'llarida manevr ishlarini bajarishda yordamchi funksiyalarni bajarish
				B2.03.3	Yuk tashish xavfsizligiga ta'sir qiluvchi sharoitlarni nazorat qilish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				B2.04.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdning uzellari va agregatlarini nazorat qilish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				B2.05.3	Favqulodda tormozlashni qo'llash
		B3.3	Dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdning texnik xizmatini bajarish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish	B3.01.3	Yo'l davomida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etishda yordamchi funksiyalarni bajarish
				B3.02.3	Yo'l davomida dizel poyezd, lokomotiv, parovoz, elektrpoyezdning texnik xizmatini bajarishda yordamchi funksiyalarni bajarish
3.	83110003-Drezina haydovchisi	D1.3	O'zi yurar maxsus temir yo'l harakat tarkibini boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish va reja asosidagi profilaktik ta'mirlash	D1.01.3	Ta'mirlash, qurilish va tozalash ishlarini bajarishda o'zi yurar maxsus temir yo'l harakat tarkibini boshqarish
				D1.02.3	Ish bajariladigan joyga temir yo'l orqali harakatlanishda o'zi yurar maxsus temir yo'l harakat tarkibini boshqarish
				D1.03.3	O'zi yurar maxsus temir yo'l harakat tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va uni reja asosida profilaktik ta'mirlashda ishtirok etish
4.	83110008-Elektrovoz mashinisti yordamchisi	E1.3	Ish jarayonining tayyorlov va yakuniy bosqichlarida yordamchi vazifalarni bajarish	E1.01.3	Elektrovozni qabul qilish (topshirish) jarayonida asosiy uzellar, tizimlar va asboblarni ko'zdan kechirish hamda ularning ishlashini tekshirish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish

				E1.02.3	Elektrovozni ishga tayyorlash va uni jihozlash (ekipirovka qilish) bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				E1.03.3	Tormozlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etish
				E1.04.3	Belgilangan hujjatlarni yuritish
		E2.3	Poyezdni oqilona boshqarish rejimida tashishni amalga oshirish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish	E2.01.3	Elektrovozni boshqarishda yordamchi ishlarni bajarish
				E2.02.3	Depo va stansiya yo'llarida manevr ishlarini bajarishda yordamchi ishlarni bajarish
				E2.03.3	Tashish xavfsizligiga ta'sir etuvchi sharoitlarni nazorat qilish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				E2.04.3	Elektrovozning uzal va agregatlari holatini nazorat qilish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				E2.05.3	Favqulodda tormozlashni qo'llash
		E3.3	Elektrovozni texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish	E3.01.3	Yo'l davomida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
				E3.02.3	Yo'l davomida elektrovozga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
5.	83110024-Teplovoz mashinisti yordamchisi	F1.3	Yordamchi ishlarni amalga oshirishda yordamchi funksiyalarni bajarish	F1.01.3	Teplovozni qabul qilishda (topshirishda), asosiy uzellar, tizimlar va asboblarning ishlashini ko'zdan kechirish va tekshirishda yordamchi funksiyalarni bajarish
				F1.02.3	Teplovozni ishga tayyorlash va uni jihozlash bo'yicha yordamchi vazifalarni bajarish
				F1.03.3	Teplovozning tormoz uskunasi ishini tekshirishda yordamchi vazifalarni bajarish
				F1.04.3	Depoda yordamchi ishlarni bajarish
				F1.05.3	O'rnatilgan hujjatlarni yuritish

	QCL7527	F2.3	Teplovozdan poyezdni ratsional rejimda foydalanishni amalga oshirishga ko'maklashuvchi funksiyalarni bajarish	F2.01.3	Teplovozni boshqarishda yordamchi funksiyalarni bajarish
				F2.02.3	Ishlab chiqarishda yordamchi funksiyalarni, shuningdek, yo'lda va umumiy foydalanishdagi manyovr ishlarini bajarish
				F2.03.3	Tashish xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi shartlarni nazorat qilish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				F2.04.3	Teplovoz uzellari va agregatlari holatini nazorat qilish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				F2.05.3	Favqulodda tormozlashni qo'llash
		F3.3	Teplovozga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish	F3.01.3	Yo'lda paydo bo'lgan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
				F3.02.3	Yo'lda teplovozga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi funksiyalarni bajarish
6.	83110026-Tortish agregati mashinisti	G1.3	Tortish agregatining uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlash, uni ishga tayyorlash, ishga tushirish, boshqarish hamda texnologik jarayonlarga muvofiq foydalanishni amalga oshirish.	G1.01.3	Tortish agregatidan foydalanishning samaradorligi, uzluksizligi va xavfsizligini ta'minlash
				G1.02.3	Tortish agregati faoliyatini kompleks tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish
		G2.3	Tortish ishlarini belgilangan texnologik rejimlar, yo'riqnomalar va ishlab chiqarish topshiriqlariga muvofiq bajarish, ish jarayonini nazorat qilish va kerakli hollarda tartibga solish.	G2.01.3	Tortish ishlarini texnologik rejimlar va ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish
				G2.02.3	Tortish jarayonini nazorat qilish, boshqarish va tartibga solish
		G3.3	Tortish agregatining texnik jihatdan soz holatda bo'lishini	G3.01.3	Tortish agregatining texnik holatini kompleks nazorat qilish va monitoring qilish

	QCL7527		ta'minlash, uni muntazam tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini bajarishda ishtirok etish.	G3.02.3	Texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil etish va bajarilishini ta'minlash
				G3.03.3	Agregatni uzluksiz va samarali ishlashga tayyor holda saqlash
		G4.3	Bajarilgan ishlar, agregatning ishlash ko'rsatkichlari, yoqilg'i va energiya sarfi hamda aniqlangan nosozliklar bo'yicha belgilangan tartibda hujjatlarni to'ldirish.	G4.01.3	Ish jarayoni va agregat faoliyati bo'yicha hujjatlarni yuritish
				G4.02.3	Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va resurs sarfi bo'yicha hisobot tayyorlash
				G4.03.3	Aniqlangan nosozliklar va texnik hodisalar haqida ma'lumotlarni belgilangan tartibda qayd etish
				G4.03.3	Ish jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish
				G4.04.3	Favqulodda holatlarning oldini olish va xavfsiz ish muhitini ta'minlash
7.	83110001-Dizel poyezd, avtomotrisa mashinisti	H1.4	Ish jarayonining tayyorlov va yakuniy bosqichlarida vazifalarni bajarish	H1.01.4	Dizel-poyezd, avtomotrisani qabul qilish (topshirish), asosiy uzellar, tizimlar va qurilmalar holatini ko'zdan kechirish hamda ularning ishlashini tekshirish
				H1.02.4	Dizel-poyezd, avtomotrisani ishga tayyorlash va uni jihozlash (ekipirovka qilish)
				H1.03.4	Tormozlarni sinovdan o'tkazish
				H1.04.4	Belgilangan hujjatlarni yuritish
		H2.4	Dizel-poyezd, avtomotrisani boshqarishda oqilona (ratsional) rejimda tashishni amalga oshirish	H2.01.4	Dizel-poyezd, avtomotrisani boshqarish
				H2.02.4	Depo va stansiya yo'llarida manevr ishlarini bajarish
				H2.03.4	Tashish xavfsizligiga ta'sir qiluvchi holatlarni nazorat qilish
				H2.04.4	Elektr, mexanik va yordamchi jihozlar, dizel dvigatel hamda gidrouzatmaning sozligi va ishlashini nazorat qilish

				H2.05.4	Oxirgi stansiyalarda to'xtash vaqtida mexanik qism, buksa uzellari va g'ildirak juftliklarining holatini tekshirish
				H2.06.4	Zarurat tug'ilganda favqulodda tormozlashni qo'llash
		H3.4	Dizel-poyezd, avtomotrisaga texnik xizmat ko'rsatish	H3.01.4	Yo'l davomida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish
				H3.02.4	Yo'l davomida dizel-poyezd, avtomotrisaga texnik xizmat ko'rsatish
		H4.4	Lokomotiv brigadasini boshqarish va xodimlarni o'qitish	H4.01.4	Lokomotiv brigadasi ishiga rahbarlik qilish
				H4.02.4	Mashinist yordamchisini va dizel-poyezd, avtomotrisa mashinisti stajyorini o'qitish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Lokomotivlarni ta'minlash bo'yicha chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi:	72331	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Yangi ishga qabul qilinadigan xodimlar uchun boshlang'ich tayyorlov (stajirovka) davri belgilanishi mumkin, bu davrda ular tajribali mutaxassis rahbarligida amaliy ko'nikmalarni egallaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: - mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha o'qitishdan o'tganlik guvohnomasi - elektr qurilmalar bilan ishlashga ruxsat (tegishli malaka guruhi) - temir yo'l transportida ishlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tganlik va yaroqlilik xulosasi - xavfli ishlab chiqarish sharoitida ishlash bo'yicha yo'riqnoma va ruxsatnomalar Ishga munosabat va xulq atvor: - ishga mas'uliyat bilan yondashish, topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish - mehnat intizomiga qat'iy rioya qilish - hamkasblar bilan hurmat va hamkorlikda ishlash - favqulodda holatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olish - doimiy o'qish va malakasini oshirishga intilish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta maxsus ta'lim yoki umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2–6 razryadli Lokomotivlarni ta'minlash bo'yicha chilangar	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Elektrovoz va teplovozlarni ta'mirlovchi chilangar
	3	Harakat tarkibini ta'mirlash bo'yicha chilangar

QCL7527

Mehnat funksiyalarining tavsifi

Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 Lokomotivni ta'mirlash jarayonida payvandlash, mahkamlash, rostlash va sinovdan o'tkazish ishlarini bajarib, belgilangan texnik me'yorlarga muvofiqligini nazorat qilish	A1.01.3 Lokomotiv detallari va konstruktsiya qismlarida payvandlash hamda mahkamlash ishlarini bajarish, birikmalarning mustahkamligi va texnik talablarga mosligini tekshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Payvandlashdan oldin detal va konstruktsiya yuzalarini tozalaydi, zang va iflosliklardan xoli qiladi
		2. Payvandlash usuli va rejimini tanlaydi, tok kuchi va elektrod turini texnik talablarga muvofiq belgilash
		3. Detallarni yig'ish va mahkamlashdan oldin joylashuvini tekshiradi, o'lchov asboblari yordamida aniqlikni nazorat qiladi
		4. Payvandlash ishlarini ketma ketlikda bajaradi, choklar sifatini nazorat qiladi
		5. Mahkamlash elementlarini qotiradi, bolt va gaykalarni belgilangan moment bo'yicha siqadi
		6. Birikmalarni tekshiradi, yoriq bo'shliq va deformatsiyalarni aniqlaydi
		Ko'nikmalar:
		Mexanik va elektr tizimlardagi nosozliklarni aniqlaydi va bartaraf etadi
		Payvandlash va mahkamlash ishlarini texnik talablarga muvofiq bajaradi
		Diyagnostika uskunalaridan foydalanib texnik holatni tekshiradi
		Asbob uskunalar bilan xavfsiz ishlash va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qiladi
		Bilimlar:
		Lokomotivning umumiy tuzilishi va asosiy agregatlari haqida bilim
		Mexanik tizimlarning ishlash prinsipi haqida bilim
		Elektr tizimlarning ishlash prinsipi haqida bilim
		Pnevmatik tizimlarning ishlash prinsipi haqida bilim
		Tormoz tizimi tuzilishi va ishlash qoidalarini haqida bilim
		Sovutish va moylash tizimlarining

QCL7527

		vazifasi va ishlash jarayoni haqida bilim
		Diagnostika uskunalari va ularni qo'llash usullari haqida bilim
		Payvandlash texnologiyasi va metall birikmalar xususiyatlari haqida bilim
		Texnik chizmalar va sxemalarni o'qish qoidalari haqida bilim
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari haqida bilim
	A1.02.3 Agregat va mexanizmlarini rostlash, sinovdan o'tkazish hamda aniqlangan nosozliklarni bartaraf etib, ularning belgilangan texnik me'yorlar asosida ishlashini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Agregat va mexanizmlarning texnik holatini vizual ko'rikdan o'tkazadi
		2. Rostlash ishlari uchun zarur o'lchov asboblari va kalitlarni tayyorlaydi
		3. Mexanik uzellarni belgilangan texnik me'yorlarga muvofiq rostlaydi
		4. Elektr va pnevmatik tizim parametrlarini sozlaydi va tekshiradi
		5. Sinovdan oldin barcha birikmalar va ulanishlarni mustahkamlaydi
		6. Sinov jarayonida agregatlarning ishlashini kuzatish va ko'rsatkichlarni qayd etadi
		7. Aniqlangan nosozliklarni diagnostika qiladi va sababini aniqlaydi
		8. Nosoz detallarni ta'mirlash yoki almashtirish ishlarini bajaradi
		Ko'nikmalar:
		Mexanik, elektr va pnevmatik agregatlarni rostlaydi va sozlaydi
		Diagnostika uskunalari yordamida nosozliklarni aniqlaydi
		Sinov jarayonida texnik ko'rsatkichlarni kuzatadi va tahlil qiladi
		Nosoz detallarni ta'mirlash yoki almashtirishni bajaradi
		Texnik me'yorlar va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlaydi
		Bilimlar:
		Agregat va mexanizmlarning tuzilishi va ishlash prinsipi haqida bilim
		Mexanik tizimlarni rostlash usullari va texnik talablari haqida bilim

		Elektr va pnevmatik tizimlarning ishlash qonuniyatlari haqida bilim
		Diagnostika uskunolari va ularning ishlash prinsipi haqida bilim
		Sinovdan o'tkazish tartibi va texnik me'yorlar haqida bilim
		Nosozlik turlari va ularni aniqlash usullari haqida bilim
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida bilim
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bajarilayotgan ishlar uchun to'liq javobgarlikni his qilish va texnik me'yorlarga qat'iy rioya qilish
		2. Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etishda mustaqil qaror qabul qila olish
		3. Ish jarayonida xavfsizlik qoidalariga so'zsiz amal qilish va xavfli holatlarning oldini olish
		4. Berilgan topshiriqlarni nazorat ostiga olmasdan ham sifatli va o'z vaqtida bajarish
		5. Ish natijalarining ishonchliligi va lokomotivning xavfsiz ishlashi uchun shaxsiy mas'uliyatni his qilish
A2.3 Lokomotiv agregat va mexanizmlarini nosozliklarni aniqlash	A2.01.3 Agregat va mexanizmlarini diagnostika asboblari yordamida tekshirib, nosozliklarning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini belgilash	Mehnat harakatlari:
		1. Diagnostika asboblari ishga tayyorlaydi ularning sozligi va ishlash holatini tekshiradi
		2. Agregat va mexanizmlarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi, dastlabki nuqson va belgilarni aniqlaydi
		3. Diagnostika qurilmalari yordamida o'lchovlarni bajaradi, texnik parametrlarni aniqlaydi va qayd etadi
		4. Olingan natijalarni texnik me'yorlar bilan solishtiradi, farqlarni tahlil qiladi
		5. Nosozlik sabablarini aniqlaydi, ularning kelib chiqish omillarini tahlil qilish
		6. Ta'mirlash choralarini belgilaydi, nosozlikni bartaraf etish yo'llarini aniqlaydi
		Ko'nikmalar:
		Diagnostika asboblariidan to'g'ri va xavfsiz foydalanadi

		Agregat va mexanizmlarni vizual ko'rikdan o'tkazadi
		Texnik parametrlarni o'lchash va natijalarni tahlil qiladi
		Nosozlik belgilarini aniqlaydi va farqlaydi
		Nosozlik sabablarini tahlil qiladi va xulosa chiqaradi
		Ta'mirlash choralarini belgilaydi va to'g'ri yechim tanlaydi
		Texnik me'yorlar va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlatadi
		Bilimlar:
		Diagnostika asboblarning turlari va ularning ishlash prinsipi haqida tushuncha
		Lokomotiv agregat va mexanizmlarining tuzilishi va vazifalari haqida ma'lumot
		Texnik parametrlar va ularning me'yoriy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot
		Nosozlik turlari va ularning belgilarini aniqlash usullari haqida tushuncha
		Mexanik tizimlarning ishlash asoslari haqida ma'lumot
		Elektr tizimlarning ishlash asoslari haqida ma'lumot
		Pnevmatik tizimlarning ishlash asoslari haqida ma'lumot
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida tushuncha
	A2.02.3 Mexanik va pnevmatik hamda elektr tizimlarida yuzaga kelgan nosozliklarni texnik hujjatlar asosida aniqlash, ta'mirlash uchun zarur ehtiyot qismlar va usullarni tanlash	Mehnat harakatlari:
		1. Texnik hujjatlar va sxemalar asosida tizim ishlash tartibini aniqlaydi
		2. Mexanik, pnevmatik va elektr tizimlarni tashqi ko'rikdan o'tkazib dastlabki nosozlik belgilarini aniqlaydi
		3. Diagnostika asboblari yordamida tizim parametrlarini o'lchaydi va nosozlikni aniqlaydi
		4. Aniqlangan nosozliklarni texnik me'yorlar bilan solishtirib sababini tahlil qiladi
		5. Ta'mirlash uchun zarur ehtiyot

	QCL7527	qismlarni tanlaydi va ularning holatini tekshiradi
		6. Ta'mirlash usullari va texnologik ketma ketlikni belgilaydi
		7. Nosoz qismlarni demontaj qiladi va almashtirish ishlarini bajaradi
		8. Ta'mirdan so'ng tizimlarni sinovdan o'tkazib to'g'ri ishlashini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Texnik hujjatlar va sxemalarni tahlil qiladi
		Mexanik, pnevmatik va elektr tizimlarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Diagnostika asboblariidan foydalanib nosozliklarni aniqlaydi
		Texnik parametrlarni o'lchaydi va natijalarni tahlil qiladi
		Nosozlik sabablarini aniqlaydi
		Ehtiyot qismlarni tanlaydi va mosligini tekshiradi
		Ta'mirlash ishlarini bajaradi
		Tizimlarni sinovdan o'tkazadi va ishga yaroqliligini aniqlaydi
		Bilimlar:
		Texnik hujjatlar va sxemalarni tahlil qilish tartibi
		Mexanik tizimlarning tuzilishi va ishlash prinsipi
		Pnevmatik tizimlarning tuzilishi va ishlash prinsipi
		Elektr tizimlarning tuzilishi va ishlash prinsipi
		Diagnostika asboblari va ularning qo'llanilishi
		Nosozlik turlari va ularni aniqlash usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bajarilgan ishlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi
		2. Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etishda mustaqil qaror qabul qiladi
		3. Texnik me'yorlar va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qiladi
		4. Ish jarayonini nazorat qilmasdan ham sifatli bajaradi

		5. Favqulodda holatlarda tezkor va to'g'ri harakat qiladi
A3.3 Lokomotivning tormoz, sovutish, moylash va elektr tizimlarini ta'mirlash hamda sozlash ishlarini bajarish	A3.01.3 Lokomotivning tormoz tizimini tekshirish, nosoz qismlarni aniqlash va ularni ta'mirlash hamda sozlash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Tormoz tizimining texnik holatini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		2. Tormoz quvurlari va ulanish joylarini tekshiradi
		3. Tormoz tizimidagi bosim ko'rsatkichlarini o'lchaydi
		4. Diagnostika asboblari yordamida nosoz qismlarni aniqlaydi
		5. Tormoz kolodkalari va disklarining yeyilish darajasini tekshiradi
		6. Nosoz qismlarni demontaj qiladi va ta'mirlaydi
		7. Zarur ehtiyot qismlarni tanlaydi va almashtiradi
		8. Tormoz mexanizmlarini texnik me'yorlarga muvofiq sozlaydi
		9. Ta'mirdan so'ng tormoz tizimini sinovdan o'tkazadi
		10. Tormoz tizimining xavfsiz va barqaror ishlashini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Tormoz tizimini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Diagnostika asboblardan foydalanib nosozliklarni aniqlaydi
		Tormoz tizimidagi bosim ko'rsatkichlarini o'lchaydi va tahlil qiladi
		Tormoz kolodkalari va disklarining holatini tekshiradi
		Nosoz qismlarni demontaj qiladi va almashtiradi
		Tormoz mexanizmlarini texnik me'yorlarga muvofiq sozlaydi
		Tormoz tizimini sinovdan o'tkazadi va ishga yaroqliligini aniqlaydi
		Bilimlar:
		Tormoz tizimining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Tormoz quvurlari va ulanish elementlarining vazifasi

		Tormoz bosimi me'yorlari va o'lchash tartibi
		Diagnostika asboblari va ularning qo'llanilishi
		Tormoz kolodkalari va diskларining ishlash xususiyatlari
		Nosozlik turlari va ularni aniqlash usullari
		Tormoz tizimini demontaj va montaj qilish tartibi
		Tormoz mexanizmlarini sozlash usullari
		Tormoz tizimini sinovdan o'tkazish tartibi
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari
	A3.02.3 Sovutish tizimining nasoslar, radiatorlar va quvurlarini diagnostika qilish, nosozliklarni bartaraf etish va normal ishlashini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Sovutish tizimining nasoslari, radiatorlari va quvurlarini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		2. Sovutish suyuqligi sathi va aylanish holatini tekshiradi
		3. Diagnostika asboblari yordamida tizimdagi bosim va harorat ko'rsatkichlarini o'lchaydi
		4. Quvurlar va ulanish joylaridagi sizib chiqish holatlarini aniqlaydi
		5. Nosoz nasos, radiator yoki quvur qismlarini demontaj qiladi va ta'mirlaydi
		6. Ta'mirdan so'ng sovutish tizimini texnik me'yorlarga muvofiq sozlaydi
		7. Sovutish tizimini sinovdan o'tkazadi va normal ishlashini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Sovutish tizimini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Diagnostika asboblari yordamida bosim va harorat ko'rsatkichlarini o'lchaydi
		Sovutish suyuqligi aylanish holatini tekshiradi
		Quvurlar va ulanish joylaridagi sizib chiqishlarni aniqlaydi
		Nosoz qismlarni demontaj qiladi va

		almashtiradi
		Sovutish tizimini sinovdan o'tkazadi va ish holatini tekshiradi
		Bilimlar:
		Sovutish tizimining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Nasoslarning vazifasi va ishlash xususiyatlari
		Radiatorlarning tuzilishi va sovutish jarayonidagi ahamiyati
		Sovutish quvurlari va ulanish elementlarining vazifasi
		Sovutish suyuqliklarining turlari va xususiyatlari
		Diagnostika asboblari va ularning qo'llanilishi
		Bosim va harorat me'yorlarini aniqlash tartibi
		Nosozlik turlari va ularni bartaraf etish usullari
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari
A3.03.3 Moylash tizimi elementlarini (nasos, filtr, quvur va boshqalar) tozalash, almashtirish va sozlash orqali uzluksiz moy yetkazilishini ta'minlash		Mehnat harakatlari:
		1. Moylash tizimi elementlarini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		2. Moy nasosining ishlash holatini tekshiradi
		3. Filtrlarning ifloslanish darajasini aniqlaydi
		4. Moy quvurlari va ulanish joylarini tekshiradi
		5. Moy sizib chiqish holatlarini aniqlaydi
		6. Ifloslangan filtr va nosoz qismlarni demontaj qiladi
		7. Zarur ehtiyot qismlarni almashtiradi
		8. Moylash tizimini texnik me'yorlarga muvofiq sozlaydi
		9. Tizimni sinovdan o'tkazadi va uzluksiz moy yetkazilishini tekshiradi
		10. Moylash tizimi elementlarini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Ko'nikmalar:
		Moylash tizimini tashqi ko'rikdan o'tkazadi

		Moy nasosining ishlash holatini tekshiradi
		Filtrlarning ifloslanish darajasini aniqlaydi
		Moy quvurlari va ulanish joylarini tekshiradi
		Moy sizib chiqish holatlarini aniqlaydi
		Nosoz qismlarni demontaj qiladi va almashtiradi
		Moylash tizimini texnik me'yorlarga muvofiq sozlaydi
		Tizimni sinovdan o'tkazadi va moy yetkazilishini tekshiradi
		Bilimlar:
		Moylash tizimining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Moy nasosining vazifasi va ishlash xususiyatlari
		Filtrlarning turlari va ularning vazifasi
		Moy quvurlari va ulanish elementlarining tuzilishi
		Moylash materiallarining turlari va xususiyatlari
		Moy bosimi va aylanish jarayonining me'yorlari
		Nosozlik turlari va ularni aniqlash usullari
		Moylash tizimini ta'mirlash va sozlash tartibi
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari
	A3.04.3 Elektr tizimi simlari, kontaktlari va boshqaruv qismlarini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun ta'mirlash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Elektr tizimi simlari va kontaktlarini tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		2. Ulanish nuqtalaridagi bo'shashgan yoki oksidlangan kontaktlarni aniqlaydi
		3. Diagnostika asboblari yordamida elektr zanjirlarini tekshiradi
		4. Simlarning uzilish yoki qisqa tutashuv holatlarini aniqlaydi
		5. Nosoz sim va kontaktlarni demontaj qiladi
		6. Zarur qismlarni almashtiradi va ulanishlarni mustahkamlaydi

	QCL7527	7. Boshqaruv qismlarining ishlash holatini tekshiradi va sozlaydi
		8. Ta'mirdan so'ng elektr tizimini sinovdan o'tkazadi va xavfsiz ishlashini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Elektr simlari va kontaktlarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Diagnostika asboblariidan foydalanib elektr zanjirlarini tekshiradi
		Qisqa tutashuv va uzilishlarni aniqlaydi
		Nosoz kontakt va simlarni demontaj qiladi
		Elektr qismlarini almashtiradi va ulanishlarni mustahkamlaydi
		Boshqaruv qismlarini sozlaydi va tekshiradi
		Elektr tizimini sinovdan o'tkazadi va xavfsiz ishlashini aniqlaydi
		Bilimlar:
		Elektr tizimining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Elektr simlari va ulanish elementlarining vazifasi
		Kontaktlar va ularning ishlash xususiyatlari
		Elektr zanjirlari va ularning ishlash qonuniyatlari
		Diagnostika asboblari va ularning qo'llanilishi
		Qisqa tutashuv va uzilish sabablari
		Boshqaruv tizimlarining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Mehnat muhofazasi va elektr xavfsizligi qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bajarilgan ishlar uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi
		2. Elektr nosozliklarini aniqlash va bartaraf etishda mustaqil qaror qabul qiladi
		3. Elektr xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qiladi

		4. Ishni sifatli va belgilangan texnik me'yorlar asosida bajaradi 5. Favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qiladi 6. Bajarilgan ishlar uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi 7. Elektr nosozliklarini aniqlash va bartaraf etishda mustaqil qaror qabul qiladi
A4.3 Lokomotivning uzal va detallarini diagnostika uskunalari yordamida tekshirish, profilaktik ta'mirlash ishlarini bajarish hamda lokomotivning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash	A4.01.3 Lokomotivning uzal va detallarini diagnostika uskunalari yordamida tekshirib, ularning texnik holatini aniqlash va nosozliklarni erta bosqichda aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Diagnostika uskunalari ishga tayyorlaydi
		2. Uzal va detallarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		3. Diagnostika qurilmalari yordamida texnik parametrlarni o'lchaydi
		4. O'lchov natijalarini me'yoriy ko'rsatkichlar bilan solishtiradi
		5. Vibratsiya, harorat va bosim ko'rsatkichlarini tahlil qiladi
		6. Nosozlik belgilarini erta bosqichda aniqlaydi
		7. Aniqlangan nuqsonlar bo'yicha texnik xulosa chiqaradi
		8. Profilaktik ta'mirlash choralarini belgilaydi
		Ko'nikmalar:
		Diagnostika uskunalari sozlaydi va ulardan foydalanadi
		Uzal va detallarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		Texnik parametrlarni o'lchaydi va tahlil qiladi
		O'lchov natijalarini me'yorlar bilan solishtiradi
		Vibratsiya, harorat va bosim ko'rsatkichlarini tahlil qiladi
		Nosozlik belgilarini erta bosqichda aniqlaydi
		Texnik xulosa chiqaradi
		Profilaktik ta'mirlash choralarini belgilaydi
		Bilimlar:
		Diagnostika uskunalari turlari va ishlash prinsipi

		Lokomotiv uzal va detallarining tuzilishi
		Mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarning ishlash asoslari
		Texnik parametrlar va me'yoriy ko'rsatkichlar
		Vibratsiya, harorat va bosim ko'rsatkichlari haqida tushuncha
		Nosozlik turlari va ularning belgilari
		Diagnostika jarayonini o'tkazish tartibi
		Texnik hujjatlar va sxemalarni o'qish qoidalari
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari
A4.02.3 Diagnostika natijalari asosida profilaktik ta'mirlash ishlarini rejalashtirish va bajarish, eskirgan yoki ishdan chiqqan qismlarni vaqtida almashtirish		Mehnat harakatlari:
		1. Diagnostika natijalarini tahlil qiladi va texnik holatini baholaydi
		2. Profilaktik ta'mirlash ishlarini rejalashtiradi va ustuvorliklarni belgilaydi
		3. Eskirgan yoki ishdan chiqqan qismlarni aniqlaydi va almashtirishga tayyorlaydi
		4. Zarur ehtiyot qismlar va asbob-uskunalarini tanlaydi va tayyorlaydi
		5. Nosoz yoki eskirgan detallarni demontaj qiladi va almashtiradi
		6. Ta'mirlash ishlarini texnik me'yorlarga muvofiq bajaradi va nazorat qiladi
		7. Yakuniy sinovdan o'tkazadi va lokomotivning ishga yaroqliligini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Diagnostika natijalarini tahlil qiladi
		Texnik holatni baholaydi
		Profilaktik ta'mirlash ishlarini rejalashtiradi
		Eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlaydi
		Ehtiyot qismlar va asboblarni tanlaydi
		Nosoz detallarni demontaj qiladi
		Ta'mirlash ishlarini bajaradi
		Bajarilgan ishlar sifatini nazorat qiladi
		Yakuniy sinovdan o'tkazadi va ishga

		yaroqliligini aniqlaydi
		Bilimlar:
		Diagnostika natijalarini tahlil qilish tartibi
		Texnik holatni baholash mezonlari
		Profilaktik ta'mirlash turlari va ularning vazifasi
		Eskirish va ishdan chiqish jarayonlari haqida tushuncha
		Detallarni almashtirish mezonlari va talablari
		Ehtiyot qismlar va ularning texnik xususiyatlari
		Ta'mirlash texnologik jarayonlari va ketma ketligi
		Sinovdan o'tkazish tartibi va bosqichlari
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari
		Texnik hujjatlar va ekspluatatsiya me'yorlari
	A4.03.3 Lokomotivning mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirib, uzluksiz ishlashini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi
		2. Tizimlarning texnik holatini diagnostika asboblari yordamida tekshiradi
		3. Mexanik uzellarni moylash, rostlash va sozlash ishlarini bajaradi
		4. Elektr tizimlaridagi kontaktlar va ulanishlarni tekshiradi va mustahkamlaydi
		5. Pnevmatik tizim bosimini o'lchaydi va me'yorlarga mosligini aniqlaydi
		6. Nosoz qismlarni aniqlaydi va ularni demontaj qiladi
		7. Zarur ehtiyot qismlarni almashtiradi va tizimni qayta yig'adi
		8. Texnik xizmatdan so'ng tizimlarni sinovdan o'tkazadi va uzluksiz ishlashini tekshiradi
		Ko'nikmalar:
		Mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarni tashqi ko'rikdan o'tkazadi

		Diagnostika asboblari yordamida texnik holatni tekshiradi
		Mexanik uzellarni moylaydi, rostlaydi va sozlaydi
		Elektr tizimlaridagi kontakt va ulanishlarni tekshiradi
		Pnevmatik tizim bosimini o'lchaydi va tahlil qiladi
		Nosoz qismlarni aniqlaydi va demontaj qiladi
		Zarur ehtiyot qismlarni almashtiradi va tizimni yig'adi
		Ta'mirlangan tizimlarni sinovdan o'tkazadi
		Tizimlarning uzluksiz ishlashini nazorat qiladi
		Bilimlar:
		Lokomotivning mexanik, elektr va pnevmatik tizimlarining umumiy tuzilishi va ishlash prinsipi
		Mexanik uzellar (g'ildirak jufti, podshipnik, tormoz mexanizmi)ning vazifasi va ishlashi
		Elektr jihozlar (generator, tortish dvigateli, akkumulyator)ning tuzilishi va ishlash prinsipi
		Pnevmatik tizimlar (kompressor, havo magistrali, tormoz tizimi)ning ishlash asoslari
		Elektr sxemalarini o'qish va tahlil qilish asoslari
		Diagnostika usullari va nosozliklarni aniqlash tamoyillari
